

15-Mart, 2026-yil

INGLIZCHA VIDEOLARDAGI QISQARTMALAR VA ULARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Zarmed Universiteti

G‘abborova Sevinch

Zarmed Universiteti, 2-kurs talabasi

E-mail: gabborovasevinch@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada inglizcha videolarda ishlatiladigan qisqartmalar va ularning lingvistik xususiyatlari keng qamrovli tahlil qilinadi. Qisqartmalar zamonaviy raqamli kommunikatsiya jarayonida tezkor axborot yetkazish vositasi sifatida ahamiyatga ega bo‘lib nutqning ixcham va sodda shaklda ifodalanishida muhim ro‘l o‘ynaydi. Videolarda qisqartmalarning kommunikativ, semantik va stilistik funksiyalar, ularning internet tili rivojiga qo‘shayotgan hissasi ilmiy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, qisqartmalar nafaqat texnik vosita, balki tilning soddalashuvi, yangi leksik birliklarning shakllanishi va zamonaviy muloqotning shakllanishida muhim omil hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *ingliz tili, qisqartmalar, internet tili, kommunikatsiya, lingvistik rivojlanish.*

ABBREVIATION IN ENGLISH VIDEOS AND THEIR LINGUISTIC FEATURE

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of the abbreviation used in English videos and linguistic characteristics.*

Abbreviations play an important role as a means of rapid information delivery in modern digital communication and contribute significantly to expressing speech in a concise and simple manner.

The communicative, semantic and stylistic functions of abbreviations in videos, as well as their contribution to the development of internet language, are examined from a scientific perspective.

The study shows that abbreviations are not only technical tools but also important factors in language simplification, the introduction of new lexical units, and the development of modern communication.

Key words: *English language, abbreviation, internet language, communication, linguistic development.*

15-Mart, 2026-yil

СОКРАЩЕНИЯ В АНГЛИЙСКИХ ВИДЕОРОЛИКАХ И ИХ ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация. В данной статье проводится всесторонний анализ сокращений, используемых в английских видеороликах, а также их лингвистических особенностей.

Сокращения имеют важное значение как средство быстрого передачи информации в современном цифровом коммуникационном процессе и играют значительную роль в выражении речи в краткой и простой форме.

В статье рассматриваются коммуникативные, семантические и стилистические функции сокращений в видеороликах, их вклад в развитие интернет-языка.

Исследование показывает, что сокращения являются не только техническим средством, но и важным фактором в упрощении языка, формировании новых лексических единиц и развитии современной коммуникации.

Ключевые слова: английский язык, сокращения, интернет-язык, коммуникация, лингвистическое развитие.

Oxirgi yillarda ingliz tilidagi videokontentning o‘shishi tilshunoslik va kommunikatsiya sohasida yangi tadqiqotlar uchun asos yaratadi. You Tube, Tik Tok, Instagram Reels, Telegram va boshqa video platformalarda nutqning tezkor va ixcham bo‘lishi talab etiladi. Shu talab qisqartmalarni muhim vosita sifatida shakllantirdi. Qisqartmalar videolarda nutqni tez yetkazish, auditoriya bilan yaqinlikni oshirish, hissiy va stilistik ifodani kuchaytirish, shuningdek tilning ixcham va zamonaviy ko‘rinishini ta‘minlash imkonini beradi. Ular ko‘pincha bir nechta so‘zdan iborat iboralarni bitta ixcham shaklda qisqartiradi, natijada auditoriya uchun ma‘no tezroq qabul qilinadi. Inglizcha videolarda qisqartmalar nafaqat nutqni soddalashtiradi, balki tilning leksik boyligiga hissa qo‘shadi, yangi ma‘nolar paydo bo‘lishiga va nutqning norasmiy uslubini shakllantirishga yordam beradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, qisqartmalar internet nutqida keng tarqalib, yozma va og‘zaki kommunikatsiyada ham o‘z o‘rnini topmoqda.

Inglizcha videolarda qisqartmalar turli sabablarga ko‘ra qo‘llaniladi. Raqamli kommunikatsiya jarayonida tez va samarali bo‘lishi kerak, shu sababli nutq ixcham shaklda yetkaziladi. Qisqartmalar yordammida vaqt tejaydi, fikrlar aniq bo‘ladi va auditoriya bilan tez va tushunarli shaklga keladi. Misol uchun, “as soon as possible” o‘rniga ASAP, “by the way” o‘rniga BTW, “in my opinion” IMO ishlatiladi. Shuningdek qisqartmalar emotsional ohangni ifodalashda ham faol rol o‘ynaydi; OMG yoki LOL kabi birliklar his-tuyg‘ularni, kulgu va hayratni yetkazadi. Qisqartmalar stilistik jihatdan ham ahamiyatli bo‘lib norasmiy, do‘stona nutqni yaratadi va kontentni yosh auditoriyaga mos qiladi. Lingvistik jihatdan qisqartmalar tilning soddalashuvini ta‘minlaydi, yangi leksik birliklarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi, semantik yukning kengayishiga hissa qo‘shadi va nutqni ixchamlashtiradi. Ko‘plab qisqartmalar videolardan boshqa platformaga- chat, izohlar, ijtimoiy tarmoqlarga - tarqaladi, bu esa ularning ingliz tilining rivojlanishida yangi neologizmlarning

15-Mart, 2026-yil

shakllanishiga turtki bo‘ladi va ingliz tilining global kommunikatsiyadagi o‘rnini mustahkamlaydi. Bugungi kunda qisqartmalar nafaqat norasmiy nutqda, balki biznes, reklama, rasmiy nutq va ta‘lim jarayonida ham ishlatiladi, bu ularning universal xarakterini ko‘rsatadi. Inglizcha videolarda qisqartmalar lingvistik jihatdan tilning ixcham, zamonaviy va dinamik shakllanishiga hissa qo‘shadi, auditoriya bilan samarali aloqa o‘rnatadi va nutqning ritmiga moslashadi.

Xulosa qilib aytganda, inglizcha videolardagi qisqartmalar zamonaviy internet tili va video kommunikatsiyaning eng faol qatlamlaridan biri hisoblanadi. Ularning keng qo‘llanilishi nutqning tezkorligi, ixchamligi, soddaligi va auditoriya bilan samarali muloqot imkoniyatlarini oshiradi. Qisqartmalar lingvistik jihatdan tilning soddalashuvi, semantik kengayish, stilistik norasmiylashuv va yangi leksik birliklarning shakllanishiga ta‘sir qiladi. Shu bilan birga, ular internet va video kommunikatsiyadagi zamonaviy ifoda vositasi sifatida til rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, madaniy va kommunikativ hodisa sifatida ham o‘rganishga loyiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Crystal, D. Language and the Internet. Cambridge University Press, 2011.
2. McCulloch, G. Because Internet: Understanding the New Rules of Language. Riverhead Books, 2019.
3. Paolillo, J.C. “Language Variation on Internet Relay Chat”. Journal of Sociolinguistics, 2011.
4. Tagliamonte, S. Teen Talk: The Language of Adolescents. Cambridge University Press, 2016.
5. Yule, G. The Study of Language. Cambridge University Press, 2017.